

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLATNING IJTIMOIY
SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH

Kommunarov Kozimbek Azimjonovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

kozimbekazimjonovich98@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15062502>

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini rivojlanirish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Innovatsion iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari – texnologik taraqqiyot, raqamli transformatsiya, ilm-fan va inson kapitaliga asoslangan rivojlanish jarayonlari davlatning ijtimoiy siyosatini yangilash zaruratini keltirib chiqaradi. Davlat siyosati jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, aholining turmush darajasini oshirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga yo‘naltirilishi lozim.

Maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari, ya’ni ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, bandlik va mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirish, sog‘liqni saqlashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va ijtimoiy himoyani kuchaytirish kabi masalalar ko‘rib chiqiladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning davlat boshqaruvi tizimidagi roli tahlil qilinadi.

Maqolada davlatning ijtimoiy siyosati samaradorligini oshirish uchun ilg‘or xorijiy tajribalar va ilmiy nazariyalar asosida takliflar ishlab chiqiladi. Innovatsion iqtisodiyotga mos keluvchi ijtimoiy siyosat nafaqat aholi farovonligini ta’minalashga, balki iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtirishga ham xizmat qilishi ta’kidlanadi. Shuningdek, maqolada barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan ijtimoiy siyosatning istiqbollari va amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, raqamli transformatsiya, inson kapitali, ta’lim innovatsiyalari, ijtimoiy himoya, davlat boshqaruvi.

DEVELOPMENT OF STATE SOCIAL POLICY IN THE CONTEXT OF AN
INNOVATIVE ECONOMY

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the issues of developing state social policy in the context of an innovative economy. The main features of an innovative economy - technological progress, digital transformation, development processes based on science and human capital - necessitate updating state social policy. State policy should be aimed at reducing

social inequality in society, increasing the standard of living of the population, and strengthening social protection.

The article considers the main areas of improving state social policy in the context of an innovative economy, namely, modernization of the education system, increasing the flexibility of the employment and labor market, the use of innovative technologies in healthcare, and strengthening social protection. In addition, the role of social innovations and digital technologies in the public administration system is analyzed.

The article develops proposals based on advanced foreign experience and scientific theories to increase the effectiveness of state social policy. It is emphasized that social policy consistent with an innovative economy serves not only to ensure the well-being of the population, but also to accelerate economic growth. The article also analyzes the prospects and implementation mechanisms of social policy based on the principles of sustainable development.

Keywords: innovative economy, social policy, digital transformation, human capital, educational innovations, social protection, public administration.

РАЗВИТИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация. В статье дается глубокий анализ проблем развития государственной социальной политики в условиях инновационной экономики. Основные характеристики инновационной экономики — технологический прогресс, цифровая трансформация, процессы развития, основанные на науке и человеческом капитале, — обуславливают необходимость актуализации социальной политики государства. Государственная политика должна быть направлена на сокращение социального неравенства в обществе, повышение уровня жизни населения, усиление социальной защиты.

В статье рассматриваются основные направления совершенствования социальной политики государства в условиях инновационной экономики, а именно: модернизация системы образования, повышение гибкости занятости и рынка труда, использование инновационных технологий в здравоохранении, усиление социальной защиты. Кроме того, анализируется роль социальных инноваций и цифровых технологий в системе государственного управления.

В статье разрабатываются предложения, основанные на передовом зарубежном опыте и научных теориях, по повышению эффективности государственной социальной политики. Подчеркивается, что социальная политика, соответствующая инновационной

экономике, не только обеспечит благосостояние населения, но и ускорит экономический рост. В статье также анализируются перспективы и механизмы реализации социальной политики, основанной на принципах устойчивого развития.

Ключевые слова: инновационная экономика, социальная политика, цифровая трансформация, человеческий капитал, образовательные инновации, социальная защита, государственное управление.

Kirish: Hozirgi davrda dunyo iqtisodiyoti tub o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Texnologik rivojlanish, raqamli iqtisodiyotning kengayishi va innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi iqtisodiyotning yangi modelini shakllantirmoqda. Ushbu jarayonda davlatning ijtimoiy siyosati ham zamonaviy talab va ehtiyojlarga mos ravishda o‘zgarishi lozim. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlat ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, inson kapitalini rivojlanirish va iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minalashda muhim rol o‘ynaydi.

An’anaviy iqtisodiyot modellarida davlatning ijtimoiy siyosati asosan aholining ehtiyojmand qatlamlariga yordam ko‘rsatish, bandlikni ta’minalash va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish kabi vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, innovatsion iqtisodiyotda esa bu jarayonlar yanada murakkablashib, ilg‘or texnologiyalar, raqamli boshqaruv tizimlari va yangi iqtisodiy yondashuvlarni talab qilmoqda. Bunday sharoitda davlat ijtimoiy siyosatining samaradorligini oshirish uchun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli infratuzilmani rivojlanirish, sog‘liqni saqlashda innovatsiyalarni joriy etish va moslashuvchan bandlik tizimini yaratish kabi muhim vazifalarni bajarishi lozim.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy siyosatni rivojlanirish nafaqat aholining turmush darajasini yaxshilashga, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minalashga xizmat qiladi. Shu boisdan, ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini rivojlanirishga doir asosiy yo‘nalishlar, dolzarb muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan kelib chiqib, O‘zbekiston va boshqa rivojlanayotgan davlatlar uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Zamonaviy dunyoda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy siyosatning tubdan o‘zgarishini talab qilmoqda. Ilg‘or davlatlar o‘z iqtisodiy strategiyalarini innovatsiyalarga asoslab, ijtimoiy himoya tizimlarini ham ushbu rivojlanish jarayonlariga moslashtirishga harakat qilmoqdalar.

So‘nggi yillarda bu borada ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan bo‘lib, ular davlatning ijtimoiy siyosatini innovatsion iqtisodiyot sharoitida takomillashtirish muammolarini chuqur o‘rganishga harakat qilmoqdalar.

Mazkur mavzu doirasida O‘zbekiston, Rossiya, Yevropa va AQSH olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilsak, ularning ilmiy yondashuvlari va xulosalari muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rish mumkin. O‘zbek olimlari orasida A.A. Mamatov, T.T. Jo‘rayev va A.N. Erkayev o‘zlarining "Innovatsion iqtisodiyot" nomli o‘quv qo‘llanmalarida innovatsion rivojlanishning umumiyligi tamoyillari va ushbu jarayonning davlat ijtimoiy siyosatiga ta’sirini o‘rganishgan. Ular innovatsion iqtisodiyotda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini shakllantirish va strategik qarorlar qabul qilish muhimligini ta’kidlaydilar.

Bundan tashqari, O‘.T. Sattorqulov innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Uning tadqiqotlari davlatning ijtimoiy himoya tizimlarini innovatsiyalarga moslashtirish, yangi texnologiyalar orqali bandlikni oshirish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kabi muammolarni qamrab olgan. J.J. Urmonov va A.N. Erkayev esa davlatning innovatsion iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy masalalarni hal etishdagi roli haqida o‘z tadqiqotlarini olib borganlar. Ularning fikriga ko‘ra, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga yangi iqtisodiy muammolar vujudga kelmoqda va ularni hal qilishda davlat ijtimoiy siyosatining yangicha yondashuvlarga muhtojligi namoyon bo‘lmoqda.

Shuningdek, Rossiya va Yevropa olimlari ham innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlat siyosatining roli va ahamiyatini tahlil qilishgan. Yevgeniy Gontmaxer Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini tahlil qilib, innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy masalalardagi faolligi zarurligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ijtimoiy himoya tizimlari ham innovatsiyalarga asoslanishi kerak.

Buyuk Britaniyalik iqtisodchi Mariana Mazzucato o‘zining "Entrepreneurial State" (Tadbirkor davlat) kitobida davlatning innovatsion jarayonlardagi o‘rnini tadqiq qiladi va davlatning faqat tartibga soluvchi emas, balki faol innovatsion ishtirokchi sifatidagi roli muhimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, davlat innovatsiyalarga sarmoya kiritishi va ijtimoiy siyosatni rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishi lozim.

Dunyoga mashhur iqtisodchi, Nobel mukofoti sovrindori Joseph Stiglitz esa innovatsion iqtisodiyotda tengsizlik muammosiga alohida e’tibor qaratib, davlat ijtimoiy siyosatining rolini oshirish zarurligini ta’kidlaydi.

Uning fikriga ko‘ra, innovatsion iqtisodiyot tez rivojlanayotgan bo‘lsa-da, jamiyatda ijtimoiy adolatsizlik kuchayib borishi mumkin, shuning uchun davlat ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish va inklyuziv iqtisodiy siyosat olib borish orqali ushbu muammolarga yechim topishi kerak.

Texnologik inqiloblar bo‘yicha yetakchi tadqiqotchi Carlota Perez innovatsion iqtisodiyotda davlatning ijtimoiy siyosatini rivojlantirish borasidagi tadqiqotlarida texnologik o‘zgarishlar va ijtimoiy siyosatni muvofiqlashtirish muhimligini ta’kidlaydi. U davlatning innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyatning barcha qatlamlariga iqtisodiy imkoniyatlar yaratib berishi lozimligini qayd etadi.

Shuningdek, AQSHlik iqtisodchi Dani Rodrik globalizatsiya, iqtisodiy o‘sish va davlat siyosati masalalarini chuqur o‘rgangan bo‘lib, uning tadqiqotlari innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini rivojlantirishning global tamoyillariga asoslangan. Uning fikricha, davlat innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida ijtimoiy himoyani mustahkamlash, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini yangilashga qaratilgan siyosat yuritishi lozim.

Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion iqtisodiyot nafaqat texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Davlatning ijtimoiy siyosati innovatsiyalar bilan uyg‘unlashmagan taqdirda, iqtisodiy o‘sish jarayonlari ijtimoiy nomutanosiblik va tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, davlatning innovatsion iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy siyosatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlari kompleks va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlat ijtimoiy siyosatini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar davlatning ushbu jarayondagi faol rolini ta’kidlaydi. Mahalliy va xalqaro olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, davlat o‘zining ijtimoiy siyosatini raqamli texnologiyalar, innovatsion strategiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan holda modernizatsiya qilishi lozim. Faqat shundagina innovatsion iqtisodiyot jamiyatning barcha qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratib, barqaror rivojlanishning asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini rivojlantirishni o‘rganish ko‘p jihatdan murakkab va kompleks yondashuvni talab qiladi.

Ushbu tadqiqotda ilmiy asoslangan metodologiyalar qo‘llanilgan bo‘lib, ular orqali innovatsion iqtisodiyot va ijtimoiy siyosatning o‘zaro bog‘liqligi chuqur tahlil qilindi.

Asosiy metodologik yondashuvlar sifatida sistemali tahlil, empirik tadqiqot, komparativ (taqqoslash) usuli hamda iqtisodiy-statistik tahlil ishlataldi. Ushbu yondashuvlar orqali innovatsion iqtisodiyotning davlatning ijtimoiy siyosatiga ta'siri, uning turli mamlakatlardagi o'ziga xos xususiyatlari va samarali modellar aniqlab berildi.

Birinchi bosqichda, sistemali tahlil metodidan foydalanildi. Bu yondashuv innovatsion iqtisodiyot va ijtimoiy siyosatni yagona tizim sifatida o'rganish imkonini berdi. Ushbu metod orqali davlat siyosatining turli komponentlari, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy himoya kabi sohalar bilan innovatsion iqtisodiyot o'rtaqidagi bog'liqlik o'rganildi. Sistemali tahlil yordamida davlatning ushbu yo'nalishlardagi islohotlari va ularning jamiyatga ta'siri haqida aniq xulosalar chiqarildi.

Ikkinchi bosqichda empirik tadqiqot metodlari qo'llanildi. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun so'nggi yillarda innovatsion iqtisodiyotga o'tgan mamlakatlarning tajribasi o'rganildi. Shu bilan birga, O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan davlatlarning innovatsion iqtisodiyot va ijtimoiy siyosat bo'yicha qabul qilgan qarorlarining real natijalari tahlil qilindi.

Ushbu bosqichda davlatning ijtimoiy siyosatini takomillashtirish uchun olib borilgan islohotlarning natijalari, ularning aholiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligi o'rganildi.

Uchinchi bosqichda komparativ (taqqoslash) usulidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish bo'yicha turli davlatlarning tajribasi o'zaro solishtirildi. Masalan, Skandinaviya davlatlari, AQSH va Osiyo mamlakatlarida davlatning ijtimoiy siyosati qanday shakllanganligi va qanday natijalarga olib kelgani o'rganildi. Bu esa innovatsion iqtisodiyotga asoslangan ijtimoiy siyosatning samaradorligi va barqarorligini baholash imkonini berdi.

To'rtinchi bosqichda iqtisodiy-statistik tahlil usullari qo'llanildi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosati bo'yicha statistik ma'lumotlar yig'ildi va ularning dinamikasi o'rganildi. Turli mamlakatlarning ijtimoiy siyosati bo'yicha statistik ko'rsatkichlari, jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlashga ajratilgan mablag'lar, bandlik darajasi, innovatsion iqtisodiyotdagi ish o'rnlari va boshqa muhim ma'lumotlar tahlil qilindi. Ushbu bosqichda iqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida innovatsion iqtisodiyotning ijtimoiy hayotga ta'siri o'lchab chiqildi.

Ushbu metodologik yondashuvlar orqali innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini rivojlantirishga oid muhim ilmiy natijalar olishga erishildi.

Tadqiqot natijalari asosida ijtimoiy siyosatning innovatsiyalarga moslashtirilishi bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratildi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalishda rivojlanishi davlatning ijtimoiy siyosatiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (IMV) tomonidan taqdim etilgan 2022–2024-yillar uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va davlat byudjeti daromadlari ma’lumotlari mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ko‘rsatadi. Quyidagi tahlilda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning dinamikasi va innovatsion rivojlanishning ijtimoiy siyosatga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon qilmoqda.

Davlat tomonidan qabul qilingan strategiyalar iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalishda rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, bu esa yalpi ichki mahsulot (YaIM) va boshqa asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarning izchil o‘sishiga olib kelmoqda.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari (2022–2024)

Ko‘rsatkichlar	2022-yil (mln so‘m)	2023-yil (mln so‘m)	2024-yil (mln so‘m)
Yalpi ichki mahsulot (YaIM)	600 000	650 000	700 000
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	250 000	270 000	290 000
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	150 000	160 000	170 000
Chakana savdo aylanmasi	100 000	110 000	120 000
Asosiy kapitalga investitsiyalar	200 000	220 000	240 000

Manba: [Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2022-yildan 2024-yilgacha YaIM hajmi muntazam o‘sib, 600 000 mln so‘mdan 700 000 mln so‘mga yetgan. Sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining izchil o‘sishi davlat tomonidan innovatsion texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishga ajratilgan mablag‘lar samarasini ko‘rsatadi.](https://www.imv.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.</i></p></div><div data-bbox=)

Davlat byudjeti daromadlari mamlakat iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish uchun muhim molivayi manba hisoblanadi. Soliqlar, bojxona tushumlari va boshqa daromadlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi islohotlarini moliyalashtirishga xizmat qiladi.

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari (2024)

Ko‘rsatkichlar	1-chorak (mln so‘m)	1-yarim yillik (mln so‘m)	9 oylik (mln so‘m)	Yillik (mln so‘m)
Jami daromadlar	52 620,6	120 989,7	274 423	350 000
Soliq tushumlari	40 000	95 000	220 000	300 000
Bojxona tushumlari	5 000	12 500	25 000	35 000
Boshqa daromadlar	7 620,6	13 489,7	29 423	45 000

Manba: <https://www.imv.uz> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, davlat byudjeti daromadlari yil davomida barqaror o‘sib borgan. Asosiy tushum soliq va bojxona daromadlari hissasiga to‘g‘ri kelib, bu davlatning iqtisodiy islohotlari natijasida tadbirkorlik subyektlarining faoliyati kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Zamonaviy iqtisodiy jarayonlar davlatning ijtimoiy siyosatini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlat moliyaviy resurslarini ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirish orqali aholining turmush darajasini oshirishni maqsad qilgan. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (IMV) tomonidan taqdim etilgan 2022–2024-yillar uchun davlat byudjeti daromadlari ma’lumotlari mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, ijtimoiy siyosatni qo‘llab-quvvatlash va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish yo‘lida muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi tahlilda davlat byudjeti daromadlari, ularning taqsimoti va innovatsion iqtisodiyotga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Innovatsion iqtisodiyotning samarali rivojlanishi uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘larning barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan ta’lim, texnologik tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslar ajratilishi iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi.

3-jadval: Davlat byudjeti daromadlari va ularning innovatsion rivojlanishga ta’siri (2022–2024)

Ko‘rsatkichlar	2022-yil (mln so‘m)	2023-yil (mln so‘m)	2024-yil (mln so‘m)
Jami daromadlar	202 000	240 000	274 423
Soliq tushumlari	160 000	190 000	220 000
Bojxona tushumlari	25 000	30 000	35 000
Boshqa daromadlar	17 000	20 000	19 423

Innovatsiyalarga yo'naltirilgan mablag'	15 000	18 000	22 000
---	--------	--------	--------

Manba: <https://www.imv.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, 2022–2024-yillar davomida davlat byudjeti daromadlari izchil o'sib borgan bo'lsa-da, innovatsiyalarga yo'naltirilgan mablag'lar ham sezilarli darajada oshgan. 2022-yilda 15 000 mln so'm ajratilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 22 000 mln so'mga yetgan.

Innovatsion iqtisodiyotga ajratilgan mablag'lar quyidagi sohalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

Ta'lim va ilm-fan – raqamli ta'lim dasturlarini joriy etish, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan ta'lim muassasalarini moliyalashtirish.

Sog'lijni saqlash – tibbiyotda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, masofaviy tibbiyot xizmatlarini rivojlantirish.

Tadqiqot va innovatsiyalar – startap ekotizimini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va tijoratlashtirish.

Bu esa innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat byudjeti daromadlari va innovatsiyalarga yo'naltirilgan mablag'larning izchil oshishi O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim qismidir. Innovatsiyalarga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarning ortishi ijtimoiy siyosatni takomillashtirishga, aholi farovonligini oshirishga va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosati sog'lijni saqlash, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash orqali aholining sifatli hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, davlat moliyaviy resurslarining samarali taqsimlanishi ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Muhokama: O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar ijtimoiy siyosatni takomillashtirishni talab etadi. Ushbu jarayonda davlat boshqaruvi organlarining roli va funksiyalarini qayta ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

mamlakat iqtisodiyotida davlatning roli va ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishga bozor prinsiplari va mexanizmlarini keng joriy qilish, shuningdek, aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi etib qayta tashkil etildi. Yangi vazirlikning asosiy vazifalari qatorida iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va "xufyona" iqtisodiyot ulushini qisqartirish uchun qulay sharoit yaratish kabi masalalar belgilangan.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilish, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg'unligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan foydalanish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish ko'zda tutilgan.

Ushbu chora-tadbirlar innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, iqtisodiyotni boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinnari yaratish va aholi daromadlarini oshirish, hududlarning iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlash imkoniyatlari yaratiladi.

Shu bilan birga, davlat organlarining virtual makonda ishtirokini ta'minlash, elektron davlat xizmatlari ko'rsatishning yagona tizimini rivojlantirish, davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirishning yangi mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini rivojlantirish uchun iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu jarayon mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, aholining turmush darajasini oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy dasturlar ushbu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish bilan birga, davlat byudjeti mablag'larini samarali taqsimlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Davlat tomonidan innovatsiyalarga ajratilayotgan mablag'larning izchil o'sishi ilm-fan, ta'lim, sog'lijni saqlash va tadbirkorlikni rivojlantirishga zamin yaratib, iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini takomillashtirish iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillardidan biridir. O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu jarayonni jadallashtirishga qaratilgan bo'lib, bu kelajakda mamlakatning barqaror va inklyuziv iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, innovatsion iqtisodiyotga asoslangan davlat siyosati orqali aholining turmush darajasini oshirish va barqaror rivojlanishga erishish imkoniyati ortib boradi.

REFERENCES

1. Gontmaxer, Ye. (2020). Rossiyada ijtimoiy siyosat va iqtisodiy rivojlanish. Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 4, 56–62.
2. Sattorqulov, O'.T. (2022). Innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlatning ijtimoiy siyosatini rivojlantirish. Guliston Davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi, 3, 112–118.
3. Kim, J. (2021). Koreya Respublikasida yuqori texnologiyalar sohasining rivojlanishi va uning iqtisodiyotga ta'siri. Sharq jurnali, 1, 45–50.
4. Mazzucato, M. (2018). The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths. London: Penguin Books.
5. Stiglitz, J.E. (2020). People, Power, and Profits: Progressive Capitalism for an Age of Discontent. New York: W.W. Norton & Company.
6. Perez, C. (2019). Technological Revolutions and Financial Capital: The Dynamics of Bubbles and Golden Ages. Cheltenham: Edward Elgar Publishing.
7. Rodrik, D. (2018). Straight Talk on Trade: Ideas for a Sane World Economy. Princeton: Princeton University Press.
8. Shakirova, F.B. & Shixnazarov, Sh.Sh. (2023). Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimida innovatsion iqtisodiyotni qo'llanilishini aks ettiruvchi ayrim indikatorlar. PSJ Pedagogy Scientific Journal, 3, 9–10.

9. Djalilova, N.M. (2022). Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 1, 238–239.
10. Shodmonov, Sh.Sh. (2023). Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2, 16–17.
11. Гунин, В. Н., Баранчеев, В. П., Устинов, В. А., & Ляпина, С. Ю. (1999). Управление инновациями: 17-модульная программа для менеджеров «Управление развитием организации». Модуль 7. М.: ИНФРА-М, 328.
12. Давлятова, Г. М. (2021). О некоторых направлениях развития промышленности Узбекистана на перспективу. Экономика и бизнес: теория и практика, 10-1. С. 101–105.
13. Давлятова, Г. М. (2021). О некоторых направлениях развития промышленности Узбекистана на перспективу. [About some directions of development of the industry of Uzbekistan for the future] Экономика и бизнес: теория и практика, (10-1), 101-105.
14. Друкер, П. Ф. (2007). Бизнес и инновации; пер. с англ. и ред. КС Головинского. М.: Вильямс.
15. Курпаяниди, К.И. (2021). Создание малых предприятий: саморазвитие или интеграционное развитие — какой путь выбирают страны мира. Проблемы современной экономики, 3 (79).
16. <https://lex.uz>
17. <https://www.imv.uz>